



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

- birinchidan**, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;
- ikkinchidan**, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;
- uchinchidan**, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;
- to‘rtinchidan**, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;
- beshinchidan**, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;
- oltinchidan**, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;
- yettinchidan**, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;
- sakkizinchidan**, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;
- to‘qqizinchidan**, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	



EKOLOGIK MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI



Shamsiddin Allayarov
TDIU Savdo ishi kafedrasi mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekologik menejmentning korxona raqobatbardoshligi, resurs samaradorligi va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi o'rni nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etilgan. ISO 14001:2026 xalqaro standarti, tabiiy-resurslarga asoslangan firma nazariyasi, ekologik innovatsiyalar va "Porter gipotezasi" doirasidagi ilmiy yondashuvlar umumlashtirilgan. O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot, energiya va resurs samaradorligi, chiqindilarni boshqarish, ekologik madaniyat hamda ekologik nazoratni takomillashtirish bo'yicha institutsional islohotlar tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ekologik menejmentni korxona strategiyasi, investitsiya siyosati, ishlab chiqarish jarayonlari va raqamli monitoring bilan integratsiya qilishga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etilgan. Mazkur mexanizm ekologik siyosat, muhim ekologik jihatlarni baholash, qonunchilik talablariga muvofiqlik, ekologik KPIlar, yashil CAPEX, resurs tejamkorligi, sirkulyar iqtisodiyot, ta'minot zanjiri, raqamli MRV, ichki audit va rahbariyat tahlilini yagona boshqaruv sikliga birlashtiradi. Takliflar korxonalarda ekologik natijadorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va uzoq muddatli barqaror raqobat ustunligini shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ekologik menejment, ISO 14001:2026, yashil iqtisodiyot, ekologik samaradorlik, resurs tejamkorligi, sirkulyar iqtisodiyot, ekologik KPI, yashil investitsiyalar, MRV, ekologik innovatsiya, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В статье исследуются теоретические и прикладные основы экологического менеджмента как инструмента повышения ресурсной эффективности, конкурентоспособности предприятий и перехода к зелёной экономике. Обобщены положения международного стандарта ISO 14001:2026, природно-ресурсного подхода к стратегии фирмы, экологических инноваций и гипотезы Портера. Системно проанализированы институциональные реформы Узбекистана в области охраны окружающей среды, зелёной экономики, энерго- и ресурсосбережения, управления отходами, экологической культуры и экологического контроля. По результатам исследования предложен организационно-экономический механизм интеграции экологического менеджмента в корпоративную стратегию, инвестиционную политику, производственные процессы и цифровой мониторинг. Механизм объединяет экологическую политику, оценку значимых экологических аспектов, соблюдение нормативных требований, экологические KPI, зелёные капитальные вложения, ресурсосбережение, циркулярную экономику, управление цепями



поставок, цифровую систему мониторинга, отчётности и верификации, внутренний аудит и анализ со стороны руководства. Практические рекомендации направлены на повышение экологической результативности предприятий, оптимизацию затрат и формирование устойчивых конкурентных преимуществ.

Ключевые слова: экологический менеджмент, ISO 14001:2026, зелёная экономика, экологическая результативность, ресурсосбережение, циркулярная экономика, экологические KPI, зелёные инвестиции, MRV, экологические инновации, конкурентоспособность.

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of environmental management as an instrument for improving resource efficiency, business competitiveness, and the transition to a green economy. The study synthesizes the principles of ISO 14001:2026, the natural-resource-based view of the firm, environmental innovation, and the Porter hypothesis. Institutional reforms in Uzbekistan related to environmental protection, green growth, energy and resource efficiency, waste management, environmental culture, and environmental control are analyzed systematically. Based on the findings, the article proposes an organizational and economic mechanism for integrating environmental management into corporate strategy, investment policy, operational processes, and digital monitoring. The proposed mechanism combines environmental policy, assessment of significant environmental aspects, legal compliance, environmental KPIs, green capital expenditure, resource efficiency, circular economy practices, supply-chain management, digital monitoring-reporting-verification, internal audit, and management review within a single continuous-improvement cycle. The recommendations are aimed at strengthening environmental performance, reducing avoidable resource costs, improving transparency, and building long-term competitive advantages for enterprises.

Keywords: environmental management, ISO 14001:2026, green economy, environmental performance, resource efficiency, circular economy, environmental KPIs, green investment, MRV, environmental innovation, competitiveness.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ekologik omillar korxona boshqaruvining chekka funksiyasidan strategik boshqaruvning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Resurslar narxining o'zgaruvchanligi, energiya va suv ta'minotidagi cheklovlar, iqlim xatarlari, chiqindilarni boshqarish xarajatlari, xalqaro bozorlarning ekologik talablarining kuchayishi hamda investor va iste'molchilarning barqarorlikka bo'lgan talabi korxonalardan ekologik masalalarni ishlab chiqarish, moliya, investitsiya va risk-menejment tizimlari bilan birgalikda boshqarishni talab etadi. Shu jihatdan ekologik menejment atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bilangina cheklanmay, resurs unumdorligini oshirish, operatsion xarajatlarni nazorat qilish va bozor ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladigan boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ekologik menejmentning zamonaviy xalqaro institutsional asosi ISO 14000 standartlari oilasi bilan chambarchas bog'liq. 2026-yil aprel oyida e'lon qilingan ISO 14001:2026 "Environmental management systems — Requirements with guidance for use" standarti ekologik menejment tizimiga qo'yiladigan amaldagi xalqaro talablarni belgilaydi. Standart tashkilotlarga ekologik jihatlarni aniqlash, ekologik xatar va imkoniyatlarni boshqarish, qonunchilik hamda boshqa majburiyatlarga muvofiqlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik natijadorlikni uzluksiz yaxshilash uchun tizimli asos beradi [1].

O'zbekiston sharoitida ekologik menejmentning dolzarbligi iqtisodiy o'sish, urbanizatsiya, sanoat modernizatsiyasi, suv resurslariga yuqori talab, energiya transformatsiyasi va iqlim o'zgarishiga moslashish vazifalari bilan belgilanadi. Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha Climate and Development Report hisobotida moslashuv choralari yetarli bo'lmagan sharoitda iqlim ta'siri 2050-yilga kelib iqtisodiyot hajmini iqlim zararlari bo'lmagan ssenariyga nisbatan 10 foizgacha pasaytirishi mumkinligi qayd etiladi. Hisobotda mamlakat issiqxona gazlari emissiyasining qariyb 75 foizi energetika sektori hissasiga to'g'ri kelishi, iqlimga moslashuv investitsiyalarining iqtisodiy foydasi esa ayrim holatlarda ularning xarajatlaridan ikki-uch barobar yuqori bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan [6].

Mamlakatda 2030-yilgacha Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi [7], "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi [8] hamda ushbu yo'nalishdagi islohotlar samaradorligini oshirish dasturi [9] ekologik boshqaruvning strategik bazasini shakllantirdi. Keyingi bosqichda ekologiya sohasida shaffoflik va boshqaruvni takomillashtirish [10], 2025-yil davlat dasturi [11], ekologik madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi [12] va 2025-yil oxirida Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining tashkil etilishi [13; 14] institutsional mexanizmlarni yanada kuchaytirdi.

Mazkur maqolaning maqsadi ekologik menejmentning korxona iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligiga ta'sirini nazariy jihatdan asoslash, O'zbekistonda shakllanayotgan ekologik boshqaruv



institutlari va maqsadli ko'rsatkichlarni tahlil qilish hamda korxona darajasida ISO 14001:2026 tamoyillariga mos tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik menejmentning strategik mazmunini izohlovchi muhim nazariy yondashuvlardan biri S. Hart tomonidan ilgari surilgan natural-resource-based view — firmaning tabiiy resurslarga asoslangan strategik qarashi hisoblanadi. Hart korxonaning uzoq muddatli raqobat ustunligi ifloslanishni oldini olish, mahsulot hayotiy siklini boshqarish va barqaror rivojlanish bilan bog'liq noyob tashkiliy qobiliyatlar orqali shakllanishini asoslaydi [2]. Ushbu yondashuv ekologik boshqaruvni majburiy xarajat emas, balki strategik resurs va kompetensiyalar majmui sifatida talqin qilish imkonini beradi.

M. Porter va C. van der Linde ekologik talablar va raqobatbardoshlik o'rtasidagi an'anaviy "xarajat — foyda" qarama-qarshiligini qayta ko'rib chiqib, puxta ishlab chiqilgan ekologik talablar korxonalarda innovatsiyani rag'batlantirishi va resurs unumdorligini oshirishi mumkinligini ko'rsatgan [3]. Mazkur qarash keyinchalik "Porter gipotezasi" sifatida rivojlandi. Uning boshqaruv nuqtai nazaridan muhim jihati shundaki, ekologik muammolarni faqat yakuniy ifloslanishni tozalash orqali emas, balki texnologiya, dizayn, jarayon, logistika va xomashyo sarfini qayta tashkil etish orqali hal etish ko'proq iqtisodiy samara berishi mumkin.

ISO 14001 standarti ekologik menejmentni amaliy tashkil etish bo'yicha eng keng tarqalgan xalqaro boshqaruv asoslaridan biridir. ISO 14001:2026 ekologik holat, iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik, resurs samaradorligi va tashkilotning faoliyat muhitini yaxlit ko'rib chiqishga kuchliroq e'tibor qaratadi. Standart "Plan-Do-Check-Act" mantiqiga tayangan holda rahbariyat yetakchiligi, ekologik siyosat, ekologik jihatlar va majburiyatlarni aniqlash, maqsadlarni belgilash, operatsion nazorat, monitoring, audit va doimiy yaxshilashni yagona boshqaruv sikliga birlashtiradi [1].

ISO 14001 va ekologik natijadorlik bo'yicha empirik tadqiqotlar ham ekologik menejment tizimining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. A. Erauskin-Tolosa va hammualliflarning 53 ta ilmiy tadqiqot hamda 182 mingdan ortiq korxona ma'lumotlarini qamrab olgan meta-tahlili ISO 14001 va EMAS sertifikatlash korporativ ekologik natijadorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [4]. Ushbu natijalar sertifikatning o'zi emas, balki uning ekologik innovatsiya va tizimli boshqaruv bilan real integratsiyasi muhim ekanini ko'rsatadi. Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham yashil iqtisodiyotga o'tishning moliyaviy, mehnat va inson kapitali bilan bog'liq jihatlari tadqiq etilgan. Xususan, E.I. Nosirov "yashil" obligatsiyalarning iqtisodiy mohiyati, ularni muomalaga chiqarish mexanizmi hamda ekologik yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishdagi rolini tahlil qilib, yashil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashini ta'kidlaydi [17]. Mazkur yondashuv korxonalarda ekologik modernizatsiya, energiya va resurs samaradorligini oshirishga qaratilgan investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish nuqtai nazaridan muhimdir.

G.Q. Abdurakhmonovning mehnat iqtisodiyoti, bandlik va inson kapitaliga oid tadqiqotlari esa iqtisodiy transformatsiyalarda mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlari, kasbiy kompetensiyalar va samarali bandlikning ahamiyatini yoritadi [18]. Ushbu ilmiy yondashuvlarni yashil iqtisodiyot sharoitiga tatbiq etish korxonalarda ekologik menejment tizimlarini joriy qilish faqat texnologik va investitsion yangilanishni emas, balki xodimlarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish, "yashil" ko'nikmalarni shakllantirish va inson kapitalini yangi ishlab chiqarish talablariga moslashtirishni ham talab etishini asoslash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, statistik va normativ tahlil hamda ilmiy umumlashtirish usullariga asoslandi. Tadqiqotning nazariy bazasini ekologik menejment, resurslarga asoslangan strategik qarash, ekologik innovatsiyalar va korxona raqobatbardoshligi bo'yicha ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Amaliy axborot bazasi sifatida ISOning ISO 14001:2026 bo'yicha rasmiy materiallari, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi ma'lumotlari hamda Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha iqlim va rivojlanish hisoboti qo'llanildi.

Tadqiqotda makro va korxona darajasidagi boshqaruv mexanizmlari o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi. Makro darajada ekologik boshqaruvning institutsional transformatsiyasi va 2030-yilgacha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Mikro darajada esa korxonalarda ekologik siyosat, resurs iste'moli, emissiya, chiqindi, ekologik investitsiya, ta'minot zanjiri va boshqaruv nazorati ko'rsatkichlarini yagona ekologik menejment tizimida uyg'unlashtirish imkoniyatlari baholandi.

Maqola matnini tayyorlash va manbalarni tizimlashtirish jarayonining yordamchi bosqichlarida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanildi; barcha normativ rekvizitlar, statistik ko'rsatkichlar va ilmiy xulosalar birlamchi yoki ishonchli ilmiy manbalar bilan qayta tekshirildi. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda muallifning tahliliy umumlashtirishi asosiy o'rin tutdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologik menejment tizimini samarali tashkil etish korxonaning ekologik mas'uliyatini alohida bo'lim faoliyati darajasidan korporativ boshqaruv darajasiga olib chiqishni talab etadi. Bunda ekologik menejment ishlab chiqarish bo'limi, moliya xizmati, investitsiya bo'limi, ta'minot, logistika, HR, risk-menejment va ichki audit bilan gorizontall integratsiyalashgan bo'lishi zarur. Ekologik maqsadlar korxona strategik rejasida aniq ko'rsatkichlar, mas'ullar, budjet va monitoring davri bilan mustahkamlanmasa, ular deklarativ xarakterda qolishi mumkin.

O'zbekistonda ekologik menejment uchun zarur tashqi institutsional muhit so'nggi yillarda bosqichma-bosqich rivojlandi. 2019-yilda atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi hamda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi qabul qilindi [7; 8]. 2022-yildagi PQ-436-son qaror yashil o'sish bo'yicha o'lchanadigan maqsadli ko'rsatkichlarni belgiladi [9]. 2024-yilda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida shaffoflik va boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish, chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyot institutlarini rivojlantirish choralari amalga oshirildi [10]. 2025-yilda atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot davlat dasturi, ekologik madaniyat konsepsiyasi va ekologik boshqaruv tizimining institutsional qayta tashkil etilishi ushbu yo'nalishni yangi bosqichga olib chiqdi [11–14].

1-jadval. O'zbekistonda ekologik menejment va yashil boshqaruvning institutsional rivojlanish bosqichlari

Yil	Asosiy hujjat / institut	Ekologik menejment uchun boshqaruv ahamiyati
2019	PF-5863: 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi	Atrof-muhitni muhofaza qilishning uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlari va davlat siyosati asoslarini belgiladi.
2019	PQ-4477: 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi	Resurs samaradorligi, past uglerodli rivojlanish va yashil investitsiyalarni iqtisodiy siyosat bilan bog'ladi.
2022	PQ-436: 2030-yilgacha yashil iqtisodiyot islohotlari samaradorligini oshirish	GHG intensivligi, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, suv, ko'kalamzorlashtirish va chiqindilar bo'yicha o'lchanadigan maqsadlarni belgiladi.
2024	PF-149: ekologiya sohasida shaffoflik va boshqaruvni takomillashtirish	Ekologik nazorat, ochiqlik, chiqindilar boshqaruvi va sirkulyar iqtisodiyot institutlarini kuchaytirishga xizmat qildi.
2025	PF-16 va PQ-184: “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” hamda ekologik madaniyat konsepsiyasi	Ekologik talablarni davlat dasturlari, ta'lim, korxonalar va jamoatchilik ishtiroki bilan integratsiyalashni kuchaytirdi.
2025	PF-217 va PQ-343: Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi	Yagona davlat siyosati, ekologik nazorat, “Yashil makon” va boshqa umummilliy loyihalarni markazlashgan boshqarish tizimini shakllantirdi.
2026	PF-47: “Yashil makon” samaradorligini oshirish	2030-yilgacha umumiy ko'kalamzorlashtirish darajasini 14,2 foizdan 30 foizga oshirish va aholi jon boshiga yashil maydonni 9–10 m ² ga yetkazish vazifasini belgiladi.

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari [7–15] asosida tuzilgan.

2025-yil 18-noyabrdagi PF-217-son Farmon bilan Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi vakolatli davlat organi sifatida belgilandi. Hujjatga ko'ra, Qo'mita ekologik vaziyatni barqaror saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, “Yashil makon” loyihasi, o'rmonlarni ko'paytirish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha yagona davlat siyosati va nazoratini amalga oshiradi. Shu bilan birga, Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi — Ekopolitsiya tashkil etilishi ekologik talablarni bajarish bo'yicha nazoratning institutsional salohiyatini oshirdi [13; 14].

Korxonalar nuqtai nazaridan ushbu o'zgarish ekologik menejmentni huquqiy muvofiqlik bilan cheklab qo'ymasdan, ekologik ma'lumotlarning aniqligi, kuzatuvchanligi va rahbariyat darajasida javobgarlikni kuchaytirishni talab qiladi. Korxona ekologik ko'rsatkichlari ishlab chiqarish va moliyaviy hisobotlar kabi muntazam nazorat qilinadigan boshqaruv ma'lumotiga aylanishi zarur. Bunda emissiya, energiya, suv, xomashyo, chiqindi va atrof-muhitga ta'sir bilan bog'liq ma'lumotlar bir-biridan ajratilgan reyestrarda emas, yagona raqamli ekologik axborot konturida yuritilishi maqsadga muvofiq.



2-jadval. O'zbekistonning 2030-yilgacha yashil iqtisodiyot va ekologik boshqaruv bo'yicha asosiy maqsadli ko'rsatkichlari

Yo'nalish	2030-yil maqsadi	Korxona ekologik menejmentiga ta'siri
Issiqxona gazlari	YalM birligiga GHG emissiyasi intensivligini 2010-yil darajasiga nisbatan 35% kamaytirish	Uglerod inventarizatsiyasi, energiya auditi, dekarbonizatsiya loyihalari va MRVni kuchaytiradi.
Qayta tiklanuvchi energiya	Ishlab chiqarish quvvatini 15 GWga yetkazish va elektr ishlab chiqarishdagi ulushni 30%dan oshirish	Korxonalarda yashil elektr xaridi, quyosh/SHES loyihalari va energiya portfelini diversifikatsiya qilish imkonini kengaytiradi.
Sanoat energiya samaradorligi	Kamida 20% oshirish	Energiya intensivligi va energiya tannarxini KPI sifatida boshqarishni talab qiladi.
YalM energiya sig'imi	30% kamaytirish	Energiya tejovchi texnologiyalar, energiya auditi va investitsion tanlovda lifecycle cost yondashuvini kuchaytiradi.
Suv samaradorligi	Suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini 1 mln gektargacha joriy etish	Suv sarfi, qayta foydalanish va suv risklarini korxona darajasida kuzatish zaruratini oshiradi.
Ko'kalamzorlashtirish	Shahar yashil hududlarini 30%dan oshirish; umumiy ko'kalamzorlashtirish darajasini 14,2%dan 30%ga yetkazish	Korxona hududlari, kompensatsion ko'kalamzorlashtirish va bioxilma-xillik mezonlarini boshqaruvga kiritishga asos yaratadi.
Maishiy chiqindilar	Hosil bo'ladigan maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65%dan oshirish	Chiqindilarni ajratish, qayta ishlash, ikkilamchi xomashyo va sirkulyar biznes modellarini rag'batlantiradi.

Manba: muallif tomonidan PQ-436-son qaror va PF-47-son Farmon ma'lumotlari asosida tuzilgan [9; 15].

Maqsadli ko'rsatkichlar ekologik menejmentni korxona miqyosida o'lchanadigan natijalarga yo'naltirish uchun muhim tashqi signal vazifasini bajaradi. Masalan, sanoatda energiya samaradorligini kamida 20 foiz oshirish vazifasi korxonalarda energiya sarfini ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga nisbatan hisoblash, energiya auditi natijalarini investitsiya rejasiga kiritish va energiya tejovkor loyihalarning iqtisodiy samarasini NPV, IRR hamda payback ko'rsatkichlari bilan birga baholashni talab qiladi. Shu yo'l bilan ekologik maqsad korxona investitsion qarorining tarkibiy qismiga aylanadi.

2025-yilda ekologik boshqaruvning amaliy natijalari ham ko'kalamzorlashtirish va jamoatchilik ishtiroki yo'nalishlarida sezilarli faoliyatni ko'rsatdi. Ekologiya organlarining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil bahor mavsumida "Yashil makon" doirasida 137 million daraxt va buta ekilgan, 55 ta yangi yashil bog' tashkil etilgan. "Mening bog'im" loyihasi doirasida 43,5 milliard so'mlik 174 ta loyiha tanlab olingan, bioxilma-xillikni saqlash doirasida 2 426 ta tuvaloq tabiatga qo'yib yuborilgan [16]. Ushbu ko'rsatkichlar ekologik boshqaruvning davlat, hudud, jamoatchilik va loyiha darajalaridagi integratsiyasi kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

3-jadval. 2025-yilning birinchi yarmida ekologiya sohasidagi ayrim amaliy natijalar

Ko'rsatkich	Natija	Boshqaruv nuqtai nazaridan izoh
"Yashil makon" bahorgi ekish mavsumi	137 mln daraxt va buta	Ko'kalamzorlashtirish loyihalarini rejalashtirish, monitoring va omon qolish ko'rsatkichlarini boshqarish zaruratini oshiradi.
Yangi "yashil bog'lar"	55 ta	Hududiy ekologik infratuzilma va yashil hududlar portfelini kengaytiradi.
"Mening bog'im" loyihalari	174 ta loyiha, 43,5 mlrd so'm	Jamoatchilik ishtiroki va ochiq budjet mexanizmlarini ekologik loyihalar bilan bog'laydi.
Bioxilma-xillik tadbiri	2 426 ta tuvaloq tabiatga qo'yib yuborildi	Bioxilma-xillikni saqlashni ekologik boshqaruvning o'lchanadigan yo'nalishiga aylantirish imkonini beradi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi ekologiya organlarining 2025-yil birinchi yarim yillik yakunlari bo'yicha rasmiy ma'lumotlari [16].



Korxona darajasida ekologik menejmentning samarali modeli ISO 14001:2026ning PDCA sikliga tayangan holda, lekin iqtisodiy boshqaruv vositalari bilan boyitilgan shaklda tashkil etilishi mumkin. “Plan” bosqichida korxona ekologik siyosatni tasdiqlaydi, ekologik jihatlar va risklarni aniqlaydi, qonunchilik reyestrini yuritadi, bazaviy energiya, suv, emissiya va chiqindi ko’rsatkichlarini o’lchaydi hamda maqsadli KPllarni belgilaydi. “Do” bosqichida yashil investitsiyalar, texnologik modernizatsiya, xodimlarni o’qitish, yetkazib beruvchilarga ekologik talablar va operatsion nazorat amalga oshiriladi. “Check” bosqichida raqamli monitoring, ichki audit, qonunchilikka muvofiqlik va maqsadlarga erishish baholanadi. “Act” bosqichida esa rahbariyat tahlili asosida tuzatuvchi va takomillashtiruvchi choralar belgilanadi.

Mazkur modelda ekologik KPllar uch guruhga ajratilishi maqsadga muvofiq. Birinchi guruh — resurs samaradorligi: mahsulot birligiga energiya sarfi, suv sarfi, xomashyo yo’qotishlari, qayta ishlatilgan material ulushi. Ikkinchi guruh — ekologik ta’sir: CO₂e intensivligi, atmosfera emissiyalari, oqava suv ko’rsatkichlari, xavfli va xavfsiz chiqindilar hajmi, qayta ishlash ulushi. Uchinchi guruh — boshqaruv sifati: ekologik audit natijalari, qonunchilikka muvofiqlik, ekologik incidentlar, xodimlar o’qitilishi, yetkazib beruvchilarning ekologik baholanishi va ekologik maqsadlar bajarilishi. Ushbu ko’rsatkichlar boshqaruv panelida ishlab chiqarish va moliyaviy KPllar bilan yonma-yon ko’rsatilsa, ekologik qarorlarning iqtisodiy ta’siri aniqroq ko’rinadi.

Raqamli MRV — monitoring, reporting and verification tizimi ekologik menejmentning keyingi muhim elementi hisoblanadi. Energiya hisoblagichlari, suv sarfi datchiklari, IoT qurilmalari, chiqindi hisoboti, laboratoriya ma’lumotlari va ishlab chiqarish axborot tizimlarini integratsiya qilish ekologik ko’rsatkichlarni real vaqtga yaqin rejimda kuzatish imkonini beradi. Raqamli tizim inson omili bilan bog’liq xatolarni kamaytirishi, ekologik ma’lumotlarning audit izini saqlashi va rahbariyatga og’ishlarni erta aniqlash imkonini berishi mumkin.

MUHOKAMA

O’tkazilgan tahlil ekologik menejmentni korxona uchun uchta o’zaro bog’liq qiymat manbai sifatida talqin qilish imkonini beradi. Birinchisi — risklarni kamaytirish: ekologik talablarning buzilishi, ishlab chiqarish to’xtashi, resurs yetishmovchiligi, reputatsion yo’qotish va ekologik hodisalar bilan bog’liq tavakkalchiliklar nazorat qilinadi. Ikkinchisi — operatsion samaradorlik: energiya, suv, xomashyo va chiqindi xarajatlari optimallashtiriladi. Uchinchisi — strategik imkoniyatlar: yashil mahsulotlar, yangi bozorlar, moliyalashtirish manbalari, ESG talablari va ta’minot zanjirlarida ishonchli hamkor sifatidagi pozitsiya mustahkamlanadi.

O’zbekistonning institutsional rivojlanishi korxonalarga ikki tomonlama signal bermoqda. Bir tomondan, ekologik nazorat va ochiqlik talablarining kuchayishi muvofiqlik tizimlarini takomillashtirishni talab qiladi. Ikkinchi tomondan, yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, sirkulyar iqtisodiyot va ekologik loyihalarni rag’batlantirish korxonalar uchun yangi investitsion imkoniyatlarni yaratadi. Shu bois boshqaruv qarorlarida “ekologik xarajat” va “ekologik investitsiya” tushunchalarini farqlash, xarajatni kamaytiruvchi va yangi qiymat yaratuvchi loyihalarni alohida baholash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O’tkazilgan tadqiqot ekologik menejment zamonaviy korxona uchun atrof-muhitni muhofaza qilish vazifasidan kengroq mazmunga ega ekanini ko’rsatdi. U resurslardan oqilona foydalanish, texnologik modernizatsiya, xarajatlarni boshqarish, ekologik va iqlim risklarini kamaytirish, innovatsiyalarni rag’batlantirish hamda uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qiladigan kompleks boshqaruv tizimidir. O’zbekistonda 2030-yilgacha yashil iqtisodiyot va ekologik boshqaruv bo’yicha belgilangan aniq maqsadlar korxonalarda ekologik menejmentni tizimli rivojlantirish uchun zarur institutsional asos yaratmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Korxonalarda ISO 14001:2026 talablariga mos ekologik menejment tizimini strategik boshqaruv tizimi bilan integratsiya qilish. Ekologik maqsadlar biznes-reja, investitsiya dasturi, risk-reyestr va rahbariyat KPllariga kiritilishi lozim.

2. Ekologik ko’rsatkichlarning yagona korporativ panelini joriy etish. Unda mahsulot birligiga energiya, suv va xomashyo sarfi, CO₂e intensivligi, chiqindi hajmi, qayta ishlash ulushi, ekologik incidentlar va muvofiqlik holati muntazam aks ettirilishi zarur.

3. Yashil CAPEX loyihalarini baholashda to’liq hayotiy sikl xarajatlari va iqtisodiy foydani qo’llash. Energiya va suv tejalishi, chiqindi xarajatlari, karbon risklari, ekspluatatsiya va texnik xizmat xarajatlari investitsion tahlilga kiritilishi lozim.

4. Raqamli MRV tizimini rivojlantirish. Energiya, suv, emissiya va chiqindilar bo’yicha ma’lumotlarni IoT, avtomatlashtirilgan hisob va ishlab chiqarish axborot tizimlari bilan integratsiya qilish ekologik ma’lumotlarning ishonchiligi va tezkorligini oshiradi.



5. Sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini ishlab chiqarish va xarid jarayonlariga integratsiya qilish. Material oqimlari tahlili, chiqindilarni alohida yig'ish, qayta foydalanish, ikkilamchi xomashyo va qayta ishlanadigan qadoqlash bo'yicha korporativ standartlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

6. Ta'minot zanjirida ekologik risklarni boshqarish. Asosiy yetkazib beruvchilar ekologik mezonlar bo'yicha segmentatsiya qilinishi, yuqori riskli toifalarda ekologik muvofiqlik, resurs samaradorligi va mahsulot hayotiy sikliga oid talablar qo'llanilishi kerak.

7. Ekologik audit va rahbariyat tahlilini natijaga yo'naltirish. Audit faqat hujjatlar mavjudligini emas, balki KPI dinamikasi, resurs tejalishi, investitsiya samarasi, incidentlar sabablari va tuzatuvchi harakatlarning natijadorligini baholashi zarur.

8. Korxonalarda iqlim risklari va moslashuv rejasini ishlab chiqish. Suv taqchilligi, issiqlik to'liqlari, energiya uzilishlari, logistika va ta'minot zanjiri xatarlarining aktivlar, ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarga ta'siri ssenariy asosida baholanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, ekologik menejmentning keyingi rivojlanish bosqichi ekologik ko'rsatkichlarni korxonaning iqtisodiy natijalari, investitsiya qarorlari va raqamli boshqaruv tizimi bilan to'liq integratsiya qilishdan iborat. O'zbekistonda shakllanayotgan yashil iqtisodiyot institutsional bazasi va ISO 14001:2026ning zamonaviy tamoyillari uyg'unlashtirilsa, ekologik menejment korxonalarda nafaqat muvofiqlikni ta'minlovchi, balki resurs samaradorligi, innovatsiya va barqaror raqobat ustunligini yaratadigan strategik boshqaruv vositasiga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ISO. ISO 14001:2026. Environmental management systems — Requirements with guidance for use. — Geneva : International Organization for Standardization, 2026.

2. Hart S. L. A Natural-Resource-Based View of the Firm // Academy of Management Review. — 1995. — Vol. 20, No. 4. — P. 986–1014. — DOI: 10.5465/AMR.1995.9512280033.

3. Porter M. E., van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship // Journal of Economic Perspectives. — 1995. — Vol. 9, No. 4. — P. 97–118. — DOI: 10.1257/jep.9.4.97.

4. Erauskin-Tolosa A., Zubeltzu-Jaka E., Heras-Saizarbitoria I., Boiral O. ISO 14001, EMAS and environmental performance: A meta-analysis // Business Strategy and the Environment. — 2020. — Vol. 29, No. 3. — P. 1145–1159. — DOI: 10.1002/bse.2422.

5. Arocena P., Orcos R., Zouaghi F. The impact of ISO 14001 on firm environmental and economic performance: The moderating role of size and environmental awareness // Business Strategy and the Environment. — 2021. — Vol. 30, No. 2. — P. 955–967. — DOI: 10.1002/bse.2663.

6. World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. — Washington, DC : World Bank, 2023.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-sentabrdagi PF-149-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida shaffoflikni ta'minlash va boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va 'yashil iqtisodiyot' yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi PF-217-son "Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.



14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi PQ-343-son "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PF-47-son "Yashil makon" umummilliy loyihasi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.

16. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi. 2025-yilning birinchi yarmida ekologiya sohasida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. — Toshkent, 2025.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

